GRAMMATIK SHAKLLARNI O'QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xuyayarova Solihaposhsho

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili-adabiyot darslarini, shu jumladan grammatik shakllarni o`qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning metodologik, ijtimoiy jihatlari muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: Grammatika, ona tili, talaba, o`qitish, metod.

KIRISH

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimiga yo‘naltirilayotgan katta hajmdagi investitsiyalar O‘zbekistonning eng ilg‘or mamlakatlar qatoridan joy olishiga zamin yaratmoqda. O‘zbekistonning ta’lim modeli eng zamonaviy talablarga javob beradigan ta’lim muassasalarini barpo etish bilangina cheklanib qolmasdan, ushbu model avvalambor, sifatga, ya’ni o‘qituvchilar, talabalar, o‘quv dasturlari va pirovard natijada bilimlar sifatini oshirishga asoslangandir. Jamiyatimizga chuqur bilimli, malakali, tezkor va konstruktiv tarzda qaror qabul qila oladigan mutaxassislar zarur. Shu bois o‘qituvchi va o‘quvchi-talabaning shaxsga yo‘naltirilgan o‘zaro hamkorligi ta’lim jarayonining muhim jihatiga aylanib, bunda ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish katta rol o‘ynaydi.

Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash mutaxassislarni tayyorlashning sifatini oshirishga hamda talabalarning mustaqil ishlarining rolini faollashtirishga ko‘maklashadi. Bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion ta’lim metodlarini joriy etish kelajakda uning mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishiga zamin yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Mantiqiy va erkin fikrlovchi, dunyoqarashi keng, ijodiy va badiiy tafakkurga ega shaxsni kamol toptirish o‘zbek tili va adabiyot fanining bosh maqsadidir, yosh avlodni kamol toptirishda o‘zbek tili va adabiyot o‘qituvchisining xizmati naqadar mas’uliyatli ekanligidan dalolat beradi. Zero, dars – muqaddas! Demak, maqsad bitta, u ham bo‘lsa, talabalarga berilayotgan ta’lim-tarbiya sifatini oshirib, ularda kommunikativ salohiyatni shakllantirish, mustaqil hayotda o‘z fikriga, o‘z so‘ziga ega bo‘lgan vatanimiz ertangi kunini dadil davom ettirib, yuqori marralar sari intiladigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat.

Pedagogik texnologiyalarning maqsadi o‘qituvchi va talabaning belgilangan maqsadga hamkorlikda erishishlarini ta’minlashdir. O‘quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o‘zlari xulosa qila olsa, ko‘zlangan maqsad amalga oshadi.

O‘qituvchi talabalarning faoliyati uchun imkoniyat va sharoit yarata olishi o‘qitish jarayonining asosi sanaladi. Har bir dars, mavzu, o‘quv fanining o‘ziga xos texnologiyasi bor. Bugungi kunda bizga ma’lum va keng qo‘llanadigan usullardan “Aqliy hujum”, “Klaster”, “VENN diogrammasi”, “BBB”, “FSMU” kabilar dars jarayonida o‘zlarining samarali natijalarini ko‘rsatib kelmoqda [4]. “Qiyoslash metodi”, “Davra metodi”, “6x6x6” kabi metodlarning dars samaradorligini ta’minlashda o‘ziga xos o‘rni bor. Xususan, “Qiyoslash metodi”dan adabiyot fanida Odil Yoqubov hamda Pirimqul Qodirov hayoti va ijodi o‘rganilgandan so‘ng mavzuni mustahkamlash uchun foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun talabalar uch guruhga bo‘linib oladilar. Birinchi guruhga Odil Yoqubov va Pirimqul Qodirovning hayot yo‘li va bundagi o‘zaro o‘xshashliklar, ikkinchi guruhga ularning ijodiy merosi va yaratgan qahramonlari hamda ularning o‘xshash zamonlari, uchinchi guruhga esa ularning asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar xususida fikrlarni umumlashtirish, jamoa bo‘lib taqdim qilish so‘raladi. Shuningdek, ona tili fanidan “Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari” mavzusi o‘rganilgandan so‘ng talabalarga “Guruhlarda ishlash metodi” asosida “Men to‘ldiruvchiman!” mavzusida ijodiy matn tuzish topshiriladi. Bu topshiriq yakka tartibda, kichik yoki yakka tartibda, kichik yoki katta guruhlar

tomonidan ham bajarilishi mumkin. Mavzu yuzasidan matn talabalar tomonidan taqdim qilinadi. Bu metod orqali talabalarning jamoada ishlash ko‘nikmalari rivojlantiriladi, xotirasi mustahkamlanadi, yozma yoki og‘zaki savodxonligi o‘stirilib, ijodiy matn yaratish malakasi mustahkamlanadi. O‘zbek tili darslarida talabalarning yozma nutqi va imlosi savodxonligini mustahkamlash maqsadida matn yaratish yuzasidan bir qancha qiziqarli topshiriqlar berish mumkin. Jumladan, “Morfologiya” bo‘limini o‘tish jarayonida har bir so‘z turkumi yuzasidan grammatik ertak yaratish vazifasi topshirilsa, talabalarning grammatik savodxonligi o‘sish bilan bir qatorda, mantiqiy mushohada qilish qobiliyati rivojlanadi, ijodkorligi oshadi. Innovatsion texnologiyalar ta’lim sifati va samaradorligini oshirib, ta’lim jarayonining markaziga talabalarning o‘quv-biluv faoliyatini qo‘yadi, ta’lim jarayoni yaxlitligini ta’minlaydi. Talaba faoliyatining yuqori darajadagi ko‘rsatkichi, o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etishi, iroda va faoliyatning talaba ongining predmetiga aylanishdir.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, talabalarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas’uliyatni sezish, tahlil qilish, eng asosiysi, talabani qo‘zg‘atishga qaratilganligi, pedagogning o‘z tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Innovatsiyalarning ta’limda qo‘llanishi bugungi kunda ta’lim, fan va amaliyotning integratsiyasiga olib boruvchi asosiy yo‘l ekanligi ma’lum bo‘lmoqda. Bu esa zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida innovatsiyalar ta’lim sifatini oshirishning asosiy vositasiga aylanmog‘i kerakligini anglatadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Abdukadirov, Abdukaxxor Abduvakilevich. Masofali o`qitish nazariyasi va amaliyoti. monografiya / A. A. Abdukadirov, A. X. Pardaev; red. M. Sodikova. – T. : Uzbekiston respublikasi fanlar Akademiyasi " FAN " nashriyoti, 2019. - 145 b.
2. Aripov M.M. va boshqalar. Informatika, informatsion texnologiyalar, 2-qism.-Toshkent, «TDTU», 2013, 430b.
3. Andreev A. A. Masofaviy ta'limga kirish. O'quv va uslubiy qo'llanma. - M.: VU, 2017 yil
4. G‘ulomova M.X., Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshirish usullari – T.: 2019

WORDLY KNOWLEDGE